

**S.Qulmurodova**

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

**S. Marupboyeva**

3-bosqich talabasi

---

## **GARIPISHIDA NUQSONI BOR BOLALAR BILAN RESPUBLIKAMIZDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR KO'LAMI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda, zamonaviy talablarning ta'lim sifatini oshirish, jumladan, imkoniyati cheklangan, ta'lim olishga muhtoj bo'lgan bolalarni qo'llab quvvatlash to'g'risidagi qonun va qarorlarning qabul qilinishi maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lim tizimini isloh etishning rivojlantirish jarayoni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Imkoniyati, xalq, odob-ahloq, jamiyat, ta'limtarbiya, jamoa, tizim, orzu, maqsad, texnologiya, texnologiya, maxsus, jismoniy.

---

1991 yilda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan, ta'lim olishga muhtoj bo'lgan bolalarni qo'llab quvvatlash to'g'risidagi qonun va qarorlarning qabul qilinishi maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lim tizimini isloh etishning dastlabki bosqichi hisoblandi. Respublikamizda inklyuziv ta'limni joriy etishda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» XTV tomonidan tasdiqlangan «Inklyuziv ta'lim» muvaqqat nizomi (2005 yil), Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar ta'limi haqidagi muvaqqat nizom va rivojlangan horijiy davlatlarning ish uslublarini o'rganishga asoslanadi.

Nogironlarni umumta'lim tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish Respublikamizda 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, Respublika ta'lim markazi va YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o'tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Shu davrdan boshlab olimlar, maxsus ta'lim tizimidagi rahbar xodimlari, pedagoglar, umumta'lim mussasalarining rahbarlari va nodavlat jamoa tashkilotlarining nogironlar ta'limi ehtiyojini qondirishga qaratilgan munosabatlari o'zgara boshladi.

Respublikamizda 2020 yil sentyabr oyida yangi tahrirdagi „Ta'lim to'g'risida“ gi qonun tomonidan tasdiqlandi. Tasdiqdan oldin esa, O'zbekiston Respublikasi nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlili o'tkazdi. Qonunning 20- moddasida Jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etiladi. Ushbu qonunda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish maqsadida 2020 yil 13 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qarorlari ishlab chiqildi

Umumiy o'rta ta'limning hozirgi bosqichida boshlangich sinflar o'quvchilarining umumta'lim tayyorligining mazmuni va darajasiga bo'lgan talablar ancha ortdi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom»da yozib quyilganidek: «Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik kabilarni va amaliy

tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yunaltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi». Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim - tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning extiyolarini umumta'lim muassasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

5 – 6 – 7 yoshli bolalarda lug'at boyligi 2500-3500 tagacha so'zlarni tushunishi va bilishi kerak, aks holda albatta mutahassis bilan maslahatlashish lozim bo'ladi. Bolalarni nutqi va aqlini rivojlantirishda hikoya, ertaklar juda foydali. Ularga ertak o'qib berilganda fikrlash qobiliyatini ham o'stirgan bo'lamiz. Ayniqsa buvijon va bobojonlar ota-onalar va bobojonlarimiz o'zlarini yoshliklarini va yoshlikda o'ynagan o'yinlarini gapirib berganlarida bolada albatta qiziqish paydo bo'ladi. Kecha aytib bergan ertakni qaytadan so'raganingizda bolada xotirasi mutahkamlanadi, fikrlash qobiliyati shakllanadi. Undagi ijobiy qahronlari obrazlari bolalarni ishtiyoqini ortiradi. Bola psixologiyasi juda murakkab, ba'zi birlari injiq bo'lsa, ba'zi birlari odamovi bo'lishadi. Agar shunday holatlarga duch kelsangiz albatta ularga ko'proq vaqt ajratining, ular bilan ko'proq gaplashing, savollariga javob bering. Bolalar aqlini rivojlantirish uchun shaklli va rangli o'yinchoqlar juda muhim. Bolada rang ajratish va shakllarni farqlash qobiliyati rivojlanadi

Bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlari tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Homiladorlikning dastlabki uch oyligida onaning virusli kasalliklar bilan qattiq shamollashi, ularni davolamasdan oyoqda o'tkazishi, o'zboshimchalik bilan turli dori-darmonlarni qabul qilishi, ota yoki onaning giyohvand moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishi, radiatsiya, tos suyagining torligi natijasida tug'uruqda bola miyasining lat yeyishi, kindigiga o'ralishi, bo'g'ilib qolishi, yo'ldosh ko'chib qolishi natijasida bolaga kislorod yetib bormaslik holatlari uchraganda bolada nutqiy nuqsonlar kelib chiqishi mumkin.

Shuningdek, bola tug'ilgandan to uch yoshga to'lgunga qadar og'ir infeksiyon kasalliklarga chalinishi, turli miya jarohatlarini olishi, bolaning ilk rivojlanish paytidan unga gapirmaslik, so'zlarni to'liq va o'z nomi bilan aytmaslik, tilga kira boshlaganda savollariga javob bermaslik, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilmaslik ham nutqdagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Buni esa bolalarning nutqini o'stirmasdan turib amalga oshirib bulmaydi. Shu bois maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tevarak-atrofnii o'rganishda nutqini rivojlantirishning samarador yo'llari hamda vositalarini ishlab chiqishning tadqiqot muammosi sifatida belgiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishga nisbatan quyidagicha yagona yondashuv zaruriyatini aniqladik:

- tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo, nutq, eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinroq, egallaydi);
- aniq talaffuz hosil qilish (so'z va so'z birikmalarini dona-dona va aniq talaffuz qilish);
- so'zni talaffuz qilganda urg'uni to'g'ri qo'yish ustida ishlash;
- nutqning orfoepik jihatdan to'g'riligi ustida ishlash (bu na'munaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami);
- nutq suratini rivojlantirish;
- nutqning ifodaliligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya'ni nutqning ongli ifodalanishi);

- nutqiy nafas olishni shakllantirish (bunda to'g'ri nafas olishni o'rganadi);
- oilada yoki bog'chada so'zlarni ota - ona va tarbiyachilar chiroyli va to'g'ri gapirishlari lozim;
- o'z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish;

Kuzatishlarimiz asosida shunday hulosaga keldikki, maktabgacha yoshdagi

bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda tarbiyachi va ota - onalarning roli benihoya kattadir.

Bolalar nutqi ustida ishlash jaryonida tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo'lishlariga, tabiiy ohangda gapirishlariga, so'zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga, qo'llari va yuz mimikalarini bamaylixtir holatda tutib turishlariga e'tibor berilishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23- sentyabr.O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qar
1. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom.
2. Asqarxo'jayeva M. Bog'chalaráa o'zbek tilini o'rganish. Bolalar bog'chalari tarbiyachilari uchun metodik qo'llanma. Toshkent: 2010.
3. Z.Irohimo'va, M.G'aybullayeva. bola^ bog'chalari uchun dasturlar. Tevarak - at'raf bilan tanishtirish, nutq o'stirish, badiiy adabiyot. Toshkent: 2015.
4. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. Toshkent: 2018.